# Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi
*(2020- yil yanvar-oktabr)*

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi,**
*mlrd. so‘m, o‘zgarish sur'ati, %*




Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 6018,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 101,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 53,5 % ni tashkil etdi.

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati 5,9 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda 3,3 % ga hamda elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 1,8 % ga o‘sishi xizmat qildi.

Shuningdek, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 19,8 % ga pasayishi kuzatildi.

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020-yilning yanvar-oktyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23,8 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoat

2020-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3221,5 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 53,5 % ini tashkil etdi.



## Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, *% da*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog‘ining hajmi 256,9 mlrd. so‘m (jamiga nisbatan ulushi 8,0 %), o’rta-yuqori texnologiyali 141,4 mlrd. so‘m (jamiga nisbatan ulushi 4,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali 633,8 mlrd. so‘m (jamiga nisbatan ulushi 19,7 %), quyi texnologiyali 2189,4 mlrd. so’m (jamiga nisbatan ulushi 68,0 %) ni tashkil etdi.



# Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-oktabr | 2020- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna | 30,6 | 35,6 | 5,0 |
| Aroq, ming l. 100 % spirt | 941,5 | 1354,6 | 413,1 |
| Sellyuloza, ming tonna 90 % | 1142,6 | 1597,2 | 454,6 |
| Paxta tolasi, ming tonna | 20,4 | 25,6 | 5,2 |
| Yigirilgan ip, tonna | 2555,6 | 2171,4 | -384,2 |
| Paxta chigiti, ming tonna | 31,9 | 38,3 | 6,4 |
| Paxta tiviti (lint), ming tonna | 1,9 | 2,1 | 0,2 |
| Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, ming tonna | 20,7 | 26,7 | 6,0 |
| Etilen polimer qoplar, ming tonna | 14,3 | 14,5 | 0,2 |
| Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kVt/s | 11839,3 | 11567,7 | -271,6 |
| Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming Gkal | 170,5 | 92,7 | -77,8 |

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish

*(yirik korxonalar bo‘yicha)*



Yumshoq bug‘doy va spelta uni

**35,6**
*ming tonna*



Aroq

**1354,6**
*ming l. 100 % spirt*



Sellyuloza

**1597,2**
*ming tonna 90 %*



Paxta chigiti

**38,3**
*ming tonna*



Paxta tiviti (lint)

**2,1**
*ming tonna*



Yigirilgan ip

**2171,4**
*tonna*

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish
*(yirik korxonalar bo‘yicha)*



Paxta tolasi

**25,6**
*ming tonna*



Etilen polimerli qoplar

**14,5**
*ming tonna*



Soapstok

**121,9**
*tonna*



Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi

**11567,7**
*mln. kVt/s*



Bug‘ va issiq suv (issiqlik energiyasi)

**92,7**
*ming Gkal*



Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa

**26,7**
*ming tonna*

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2741,3 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 45,5 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 1,8 % ga oshganligi kuzatildi.

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 32,2 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.



2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,3 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2042,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 17,9 % ga pasayishi kuzatildi, jami sanoatdagi ulushi esa 33,9 % ni tashkil etdi.




2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 46,7 % dan 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida 47,8 % ga oshganligi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 1,4 % ni (2019-yil yanvar-oktabr oylarida 1,3 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 32,7 % ni, shuningdek, Guliston shahri 16,9 % ni, Yangiyer shahri 9,5 % ni hamda Sayxunobod tumanida 7,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishning o'sish sur'atida viloyat (82,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Sayxunobod tumanida (101,4 %), Sardoba tumanida (100,4 %), Xovos tumanida (99,5 %), Yangiyer shahrida (98,2 %), Mirzaobod tumanida (93,5 %) va Guliston shahrida (92,8 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati
*(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)*

| | Mlrd. so‘m | Jamiga nisbatan ulushi, *% da* | 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, *% da* |
|---|---|---|---|
| **Sirdaryo viloyati** | **2042,6** | **100,0** | **82,1** |
| **Guliston sh.** | 346,0 | 16,9 | 92,8 |
| **Shirin sh.** | 23,5 | 1,2 | 71,8 |
| **Yangiyer sh.** | 175,6 | 9,5 | 98,2 |
| ***tumanlar:*** | | | |
| **Boyovut.** | 128,6 | 7,0 | 42,7 |
| **Guliston.** | 52,9 | 2,6 | 72,5 |
| **Mirzaobod.** | 156,5 | 7,7 | 93,5 |
| **Oqoltin.** | 58,9 | 2,9 | 75,9 |
| **Sardoba.** | 83,8 | 4,1 | 100,4 |
| **Sayxunobod.** | 144,4 | 7,8 | 101,4 |
| **Sirdaryo.** | 667,9 | 32,6 | 80,0 |
| **Xovos.** | 157,0 | 7,7 | 99,5 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 975,4 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 16,2 % ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va indeksi

| | 2020- yil yanvar-oktabr *mlrd. so‘m* | Fizik hajm indeksi, *% da* |
|---|---|---|
| **Sirdaryo viloyati** | **6018,9** | **101,8** |
| **Guliston sh.** | 664,5 | 109,6 |
| **Shirin sh.** | 2567,4 | 104,1 |
| **Yangiyer sh.** | 444,5 | 134,4 |
| **tumanlar:** | | |
| **Boyovut.** | 276,0 | 112,8 |
| **Guliston.** | 86,1 | 96,5 |
| **Mirzaobod.** | 270,2 | 126,8 |
| **Oqoltin.** | 128,2 | 88,1 |
| **Sardoba.** | 98,4 | 75,6 |
| **Sayxunobod.** | 261,9 | 98,7 |
| **Sirdaryo.** | 1061,0 | 101,2 |
| **Xovos.** | 160,7 | 102,1 |

## Viloyatda ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, *% da*




Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 42,7 %), Sirdaryo tumani (17,6 %), Guliston shahri (11,0 %), hamda Yangiyer shahri (7,4 %), Mirzaobod tumani (4,5 %), Boyovut (4,5 %) va Sayxunobod (4,4 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xovos tumani (2,7 %), Oqoltin tumani (2,1 %), Sardoba tumani (1,6 %) hamda Guliston tumaniga (1,4 %), to'g'ri kelmoqda.

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mollari ishlab chiqarish

*(2020- yil yanvar-oktabr oylari, ming so’mda)*

| | Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish | Iste’mol mollari |
|---|---|---|
| **Sirdaryo viloyati** | **7067,8** | **2398,6** |
| **Guliston sh.** | 7302,6 | 3802,3 |
| **Shirin sh.** | 136565,3 | 1252,5 |
| **Yangiyer sh.** | 10218,3 | 4463,7 |
| **tumanlar:** | | |
| **Boyovut.** | 2119,8 | 1093,7 |
| **Guliston.** | 1178,9 | 724,6 |
| **Mirzaobod.** | 3656,0 | 2117,2 |
| **Oqoltin.** | 2451,5 | 1125,7 |
| **Sardoba.** | 1484,4 | 1264,3 |
| **Sayxunobod.** | 3370,7 | 2052,9 |
| **Sirdaryo.** | 8231,2 | 5181,4 |
| **Xovos.** | 1673,5 | 1635,9 |

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol mollarining o'sishi
*(2019- yil yanvar-oktabr oyiga nisbatan, % da)*



## Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ulushi
*(2020- yil yanvar-oktabr oylarida)*

| | Mahsulot hajmi (mlrd. so‘m) | Jamiga nisbatan ulushi, % da |
|---|---|---|
| **Sirdaryo viloyati** | **1878,4** | **31,2** |
| **Guliston sh.** | 262,4 | 4,4 |
| **Shirin sh.** | 23,1 | 0,4 |
| **Yangiyer sh.** | 236,1 | 3,9 |
| **tumanlar:** | | |
| **Boyovut.** | 248,4 | 4,1 |
| **Guliston.** | 52,2 | 0,9 |
| **Mirzaobod.** | 145,9 | 2,4 |
| **Oqoltin.** | 40,4 | 0,7 |
| **Sardoba.** | 64,9 | 1,1 |
| **Sayxunobod.** | 139,2 | 2,3 |
| **Sirdaryo.** | 593,1 | 9,9 |
| **Xovos.** | 72,7 | 1,2 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, *% da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2343,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 38,9 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sardoba tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 83,1%), Guliston shahri (81,0 %), Xovos (73,5 %), Mirzaobod (67,4 %), Sirdaryo tumani (66,1 %), Guliston tumani (61,6 %), hamda Yangiyer shahar (61,1 %), tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Sayxunobod tumani (57,4 %), Boyovut tumani (57,0 %), Oqoltin tumani (50,6 %) hamda Shirin shahrida (1,0 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2020- yil 1-oktabr holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 2055 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 541 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 26,3 %) Guliston shahriga, 320 tasi (16,3 %) Sirdaryo tumaniga, 187 tasi (9,1 %) Yangiyer shahriga to’gri kelmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar soni,** *birlikda*




**Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni,** *birlikda*




2020- yil yanvar-oktabr oylarida viloyatda 469 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 47,5 foizi Oqoltin tumani, Xovos tumani, Sayxunobod tumani va Guliston shahriga to'g'ri keladi.

**Sanoat statistikasi bo`limi**
Aloqa telefoni: (067) 236-86-23